

**O'ZBEKISTONDA YASHASHIM BILAN G'URURLANAMAN, TOSHKENT
TIBBIYOT AKADEMIYASIDA O'QISHIM BILAN FAXRLANAMAN**

Malikova Gulmira Sayfullo qizi

OMH fakulteti 102-B guruh talabasi

Miltiqboyeva Dilfuza O'kanovna

Ilmiy hodim: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lif a'lochisi, Boshlang'ich ta'limining fanlari iftixori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927823>

Annotatsiya. Ushbu maqolani yozar ekanman bunda O'zbekiston o'z ona vatanimiz qanday buyuk va qudratli, uning har bir qarichi ulug' ekanligini takidlab o'tmoqchiman. Men tinch, beg'ubor, jannatmakon o'lkada yashashimdan g'ururlanaman. Bizning vatanimiz gullab yashnashi va kelajak avlodlar uchun unitilmas meros bo'lib qolishini istayman. Toshkent tibbiyot akademiyasida o'qishim bilan faxrlanaman. Bizning vatanimiz bizning iftixorimizdir. Uni har bir qarichini asrab avaylaymiz. Toshkent tibbiyot akademiyasida o'qiydigan talabalar ham vatanimizni dunyoga tanitishga bel bog'lab harakat qilmoqdalar.

Tayanch so'zlar: Vatan tuyg'usi, sadoqatlilik, Vatan sog'inchi, vatanparvarlik, vatan iftixori bo'lgan buyuk shoirlar va adiblar, vatanga bo'lgan muhabbat, beg'ubor, jannatmakon, faxirlanish, g'ururlanish hissi, unitilmas meros, tinchlik.

**I AM PROUD TO LIVE IN UZBEKISTAN, I AM PROUD TO STUDY AT THE
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

Abstract. As I write this article, I want to emphasize how great and powerful our motherland Uzbekistan is, and how great every citizen is. I am proud to live in a peaceful, innocent, heavenly country. I want our homeland to flourish and remain an unforgettable legacy for future generations. I am proud to study at the Tashkent Medical Academy. Our motherland is our pride. We will protect every inch of it. Students studying at the Tashkent Medical Academy are also trying to introduce our country to the world.

Key words: sense of country, loyalty, homesickness, patriotism, great poets and writers who are the pride of the country, love for the country, innocent, heavenly, pride, sense of pride, unforgettable heritage, peace.

**ГОРЖУСЬ ТЕМ, ЧТО ЖИВУ В УЗБЕКИСТАНЕ, ГОРЖУСЬ ТЕМ, ЧТО УЧУСЬ В
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ**

Аннотация. Когда я пишу эту статью, я хочу подчеркнуть, насколько велика и могущественна наша Родина Узбекистан, и насколько велик каждый гражданин. Я

горжусь тем, что живу в мирной, невинной, райской стране. Я хочу, чтобы наша Родина процветала и оставалась незабываемым наследием для будущих поколений. Я горжусь тем, что учусь в Ташкентской Медицинской Академии. Наша Родина – наша гордость. Мы защитим каждый его дюйм. Студенты, обучающиеся в Ташкентской медицинской академии, также стараются познакомить мир с нашей страной.

Ключевые слова: чувство Родины, верность, тоска по дому, патриотизм, великие поэты и писатели, являющиеся гордостью страны, любовь к Родине, невинное, небесное, гордость, чувство гордости, незабываемое наследие, мир.

Kirish: Men bu maqolani bir ajoyib she'r bilan boshlamoqchiman.

O'ZBEKISTON

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...
Chappor urib gullagan bog'in,
O'par edim vatan tuprog'in.

Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.

Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim aslo.

O'xhashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston, –
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin;
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,

Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

Tog‘lardagi qip-qizil lola
Bo‘lib go‘yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko‘zidan qochadi uyqu.

Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o‘sadi paxta,
Barg chiqadi xar bir daraxtda,

Olmazorlar gulin to‘kadi,
Meva bog‘lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to‘lar Tekstil.

Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o‘lkada har narsa bordir,

Ko‘rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.

Hamid Olimjon.

Bu she‘rni ko‘plab odamlar maktab vaqtida o‘qishgan lekin mazmuniga esa e’tibor berishmagan. She’rda ajib uyg‘unlik vatanga bo‘lgan muhabbat yashiringan. Odamlarning vatani uchun jonnini berib himoya qilishi uni asrab avaylashi haqida so‘z yuritgan . Hamma odamni ham o‘z tashvishi bor ekanligi lekin, shuncha tashvishi-yu g‘ami bo‘lsa ham o‘z vatanini sevishi haqida so‘z yuritilgan. O‘zbekiston Respublikasining ko‘plab shoirlarining vatanmiz haqida yozgan go‘zal she‘rlari mavjud nafaqat shoirlarimizning balki , yozuvchilarining durdona asarlarida ham

buni ko‘rishimiz mumkin. Birgina shoir va yozuvchilar emas har bir inson vatanimiz uchun o‘z hissasini qo‘shayotganini ko‘ramiz.

Vatan — inson uchun bebahо boylik. Vatanning borligi odamga beqiyos kuch-qudrat, g‘ayrat-shijoat baxsh etadi. Men uyda ota-onamdan, buvim va buvamdan, kollejdagi ustozlarimdan hamda meni o‘rab turuvchi ziyoli insonlardan Vatan haqida ko‘p gaplarni eshitganman. Vatanparvar insonlar haqida film va spektakllar ko‘rganman, kitoblar mutolaa qilganman. Ona yurt haqida she’rlar yod olganman, o‘rtoqlarim bilan qo‘shiqlar kuylab, rasmlar chizganman. Bu tuyg‘u insonlarning qalbidan chuqur o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham inson borki, barchasi o‘z vatanini sevib ardoqlaydi, uni hech qanday boylikka alishmaydi. Unga nisbatan biror-bir xavf tug‘iladigan bo‘lsa, yurtini himoya qilish uchun kurashga otlanadi.

E’tibor berib qaraganda, dunyodagi barcha mard va qahramon insonlar, avvalo, Vatanni sevgani uchun qalblarida Vatan tuyg‘usi jo‘sh urgани uchun ham botirlik ko‘rsatib, nom qozonganlar. Shu tuyg‘u bois, kishilar Vatan haqida kuylaydilar, yurting taqdiriga kuyunadilar, uning ravnaqidan quvonadilar. Demak, ona yurt insonni o‘z bag‘rida voyaga yetkazibgina qolmay, unga eng muqaddas tuyg‘ularni, eng go‘zal taassurotlarni bag‘ishlaydi.

Vatan tuyg‘usi insonlarga umri davomida hamroh bo‘ladi va yillar sa-yin sayqallanib boradi. Uning o‘zi qanchalik bebahо bo‘lsa, u bilan bog‘liq tuyg‘ular ham shunchalik bebahodir. Shuning uchun ham, ularni yosh-likdan tarbiyalab borish, kamolga yetkazish katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Vatan tuyg‘usi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdaghohdek muqaddas, sajdaghohdek pok va ulug‘ bo‘lmog‘i kerak”.

Vatanni bilish — dunyoni bilish, o‘zlikni anglash, har bir insonning butun bashariyat bilan qanchalik bog‘liq, aloqador ekanini tushunish yo‘li ham demakdir. Vatan bittadir, shuning uchun ham u muqaddas. Yagona bo‘lgan narsalarning barchasi e’zozda — Vatan, Ona, Zamin, Osmon, Quyosh... Bittadan oshdimi, muqaddaslik qolmaydi. Ha, Vatan ona kabi yagonadir!

Bepoyon Vatanimizning ba’zi go‘shalarida «vatan» so‘zi uy, xona ma’nosini ham bildiradi. Aytishadi: «O‘g‘lim uchun bir vatan qurdiray...» Yoxud kishi omadsizlikdan uyidan mahrum bo‘lsa «bevatan bo‘lib qolibdi», deyishadi afsus bilan. Vatan — bu yashab turgan uyimiz! Jahon siyosiy xaritasiga boqsam, aziz Vatanimni izlayman.

Vatan qadri undan uzoq bo‘lganingda sezilarkan. Vatanga muhabbat tuyg‘usi haqi-qatan ham ilohiy ne’mat ekanligi yaqqol bilinarkan! Safarlarda bo‘laman goho... Ittifoqo taqdir taqozosи bilan qo‘shni mamlakatda umrguzaronlik qilayotgan bir so‘xlikning uyida bo‘ldim. Turmushi farovon, sog‘-salomat. Lekin yuragida dard borligi — unga nimadir yetishmayotganligi sezilib turibdi. O‘zbekiston xaritasini tuhfa qilgandim, ko‘zlariga yosh keldi.

O‘zbekiston xalqi tinch va osuda hayot kechirmoqda. Buni kimdir Vatan chegaralarining daxl-sizligidan bilsa, kimdir uning mustahkam ma’naviy qo‘rg‘oni bilan izohlaydi. Bu ikki omil uy-g‘unligi tufayli jannatmakon yurtimizda totuvlik, osoyishtalik hukm surmoqda. Shu muqaddas Vatan himoyachisi ekanidan qalbida iftixor va g‘urur tuyg‘usi uyg‘ongan har bir askar tug‘ilgan yeri, ota-onasi, sevikli yori, do‘sst va qarindoshlari, mahalladoshini qo‘msaydi. Shu tuyg‘u zamirida, Vatan sog‘inchi mujassamdir.

Vatan! Uning ta’rifiga so‘z topolmaysan kishi.



Buyuksan, mo’tabarsan eng ulug’ zamin-onajon Vatan!

(Ozod Sharafiddinov)

Bir donishmandning “Bilimning o‘zi kamlik qiladi, siz – uni qo‘llashingiz kerak, xohishning o‘zi kamlik qiladi, siz – uni amalga oshirishingiz kerak”, - degan so‘zlar mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, biz o‘zimizdagi mavjud imkoniyat va iqtidorni yanada kamol toptirish, ularni amalda qo‘llay bilish orqaligina eng baland marralarni egallahimiz mumkin. Buning uchun esa yurtimizda barcha shart-sharoit muhayyo.

Vatan – kindik qonimiz to’kilgan, jonga jondosh, qalbga sirdosh eng ulug’ kalom. Vatan – muqaddas dargoh, mo’jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo’lgan, har qarich yeri-yu, kaftdek tuprog’i zar, ko’zga gavhardir. Ona yurt misli qimmatli Ko’hinur olmosi kabi Vatan ichida yashaguvchi farzandlar uchun shunchalik ardoqlidir. Bulbul o‘z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamizot ham o‘z ona tuprog’ida baxt osmonini quchmog’i mumkin. Bu maskanning na bahosi

va na qiyoslanuvchi qudrati bor. Vatan azaldan muqaddas sanalgan. Suvidan to giyohi qadar begona ko'zlardan himoyalangan. Demak, bu yurt uchun har bir farzand jon kuydurmog'i, kelajagi uchun oz bo'lsa-da nafi tegadigan bo'lib yashamog'i lozim. Samimiyl insonga inson do'st bo'lishga talpinganidek, iymoni but farzandi bo'lmosg'i uchun ham Vatan ona kabi intilaveradi, o'sha insonni asrab-avaylaydi. Bu maskan qadrini faqat bir soniya bo'lsa ham musofir bo'lgan insongina tushunadi. Vatan ta'rifiga kalom-u, yozmoqqa qalam ojiz. Har bir insonning sog'ingan yuraklar taftiga mehr urug'ini qadaguvchi buyuk yurtida hamisha ezgulik, tinchlik bardavom va abadiy bo'lsin!

Yulduzlar miltillab, osmon fonusi oy bilan hamohang nur taratayotgan tun qo'ynida sokin navo insonni o'ziga shaydo etadi. Bu navo osudalik va farovon hayot nash'asi bilan jamlanib, goho shirin hayolotlarga yetaklaydi. Vatan tafti ayni shu hissiyotni berguvchi mehrga chambarchas bog'lanib ketadi. Ona kabi jonga jondosh, ota kabi qonga qondosh bo'lguvchi kuchni aynan Vatan bera oladi. Har kim uchun Vatan yagona va takrorlanmas mo'jiza. Quyosh erta tongdan nafis nurini, iliq sehrini baxshida etayotgan mahali har bir inson qalbida ajib bir tuyg'u tug'yon uradi. Yoinki, go'zal gul atriga oshiq qush misol atrofingda xushbo'y nasim kuy chertadi. Ayni shunday unutilmas xotiralarni ulashguvchi shul buyuk maskan jigargo'shasi ekanligingizdan faxr etib, go'yoki, osmonlarni zabit etgandek bo'ladi inson. Ha, shu maskan bizniki, barchamizniki! Zaminimizning yagonaligi va betakrorligini asrash uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz darkor. Bu biz yosh avlod uchun ham farz, ham qarzdir!

Vatanga muhabbat tuyg'usi bo'limganda edi, yurtlar vayron va zamin talato'p bo'lgan bo'lar edi. Ammo, vayronagarchiliklar shohidi bo'layotgan yerlarni eshitasiz-u, beixtiyor "Bizga, Vatanimizga ko'z tegmasin" – deya duo ham qilishga shoshilasiz. Ne uchunkim, bugunning hali atrofni chuqur anglab ololmagan ba'zi bir gunohkor, nonko'r shu yurt vakillarining o'zga yurt qirg'inbarotiga shoshilib aralashishga ketayotganlarini eshitasiz. Bu zamin ne-ne yovlarga qarshi kurashgan, shahid bo'lib ketgan ota-bobokalonlar ruhi oldida qarzdor. Bugungi kunning nafasini ajodolarimiz orzu qilib yashaganlarini barchamiz tarix varaqlaridan o'qib bilamiz. Yurtga sodiq har bir farzand bugun quroq ko'tarib urush komida yashayotgan, yo kechirimlilik siyosati orqali pushaymonlik o'tida yonayotgan yurtdoshlar qismatini ko'rib, faryod urgisi kelaveradi. Vatan tushunchasini qalbiga singdirib, dilidagi nafrat –alamni sug'orib, mehr rishtasini qardashni xohlaydi. Ammo, afsuski, barcha birdek mehr tushunchasini tushunmaydi yoki besh barmoq teng emas-da...

"Vatan qadrini vatangado va musofir biladi"-deydi dono xalqimiz. Bobokalonimiz, buyuk imperiya asoschisi Bobur ham ayni shu tuyg'u azobida to o'lgunga qadar birga yo'ldosh bo'ldi.

O'z asarida ham bir yurti qovuni isimi olish uchun ming azob chekkani to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Vatan hamisha o'z tuprog'idan yiroqdagilar uchun qo'l yetmas Mirrix yulduzidek uzoq va nurli issiqlik bilan tortguvchi kuchga ega. Tuningiz osudaligi, uyqungiz va oromingiz osoyishtaligi uchun faqat shukrona keltirguvchi zamon zaylini ne-ne kishilar orzu etmagan va o'zga notinch yerlar orzusi desak mubolag'a qilmaymiz. Vatan qon-qonimizga singgan an'ana , yurak-yurakka qadalgan ezguliklar, nigohlar tub-tubiga jo bo'lgan shukronalik tuyg'usidir. Uning qadrini qadrlashga qaddi tik avlodlar hamisha birgalikda qadam tashlamog'i lozim. Vatan qalbiga monand saf tizilgan yosh avlodning qaddini tik tutib yashamog'iga teng intilguvchi shu zamin doimo baxt nuriqa limmo-lim to'lsin.

Vatan bu bizning go'zal bo'stonimiz –O'zbekiston. Sog'inch va mehr qorishgan buyuk ajdodlar kalomida bayon etilgan yurtimiz doimo biz farzandlari uchun jonsarak ona kabi mehribon. O'zbekiston dunyoda yagona va har bir shu yurt farzandiman deguvchilar uchun muqaddas dargoh. Yurtning ertasi yoshlari, jahon minbarida bayrog'imiz hilpirashi uchun hamisha kamarbasta. Qalbi olov bo'layotgan ertaning egasi yosh avlod ezgu orzulari bilan O'zbekiston kuchiga kuch qo'shmaqda. Yurtimiz bugungi kun go'zalligidan yanada ko'rakashmoqda, qadamlarini katta va mustahkam tashlab bormoqda. O'zbekiston har soniya kelajagida mehr oshufta bo'lib, navqiron baxt birga abadiy bo'lmos'i uchun intilmoqda. Vatanimiz, O'zbekistonimiz, onajonimiz kabi qadrdon, ko'nglimiz tojidir. Shunday ekan, shu yurt uchun barcha metin yurak bilan qo'rqlay orzular sari intilmog'i va har onni mustahkam poydevor bilan qurmoq uchun dadil odimlamog'i darkor.

Biz yoshlari kuchli, bilimli, sog'lom hamda yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishimiz, siyratimizda ona xalqimiz va Vatanimizga mehru muhabbatni sarbaland, yurt ravnaqini ta'minlashga hissa qo'shishni sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir"-degan naqlga aml qilgan holda, har kim o'ziga berilgan ana shu qisqa davrda kasb-hunar egallashga, ulkan marralarni zabit etishga harakat qiladi. Men ham tengdoshlarim qatori malakali mutaxassis sifatida o'zimni namoyon etishga, yurt koriga yaraydigan inson bo'lishga intilaman. Ba'zi tengdoshlarim hoyu havasga uchib, yengil hayot ortidan quvayotganini, egri yo'lni tanlab adashayotganini ko'rib mulohaza qilaman. Axir dunyoda O'zbekistondek go'zal va betakror mamlakatda yashashning o'zi baxt emasmi?!

Bugun ulg'ayayotgan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, puxta bilim olishlari uchun olib borilayotgan amaliy sa'y-harakatlarni ba'zi davlatlarda yashayotgan bolalar hattoki tasavvur ham qilisholmaydi. Ayrim mamlakatlarda maktabda o'qish bolalarning katta orzusi hisoblanadi. Ko'pincha bolalar ta'lim olish uchun maktabga g'ayrioddiy yo'llardan borib kelishiga

to‘g‘ri keladi. Ba’zan ularning jasorati va mardligiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. Dunyodagi eng uzoq maktabgacha tog’lar osha 5 soatli yo’l, 800 metrli po’lat arqon bilan Rio-negeo daryosi ustidan o’tib maktab tomon boradilar. Ammo oramizda yurib, jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotgan, giyohvandlik, “Ommaviy madaniyat”, diniy ekstremizm kabi illatlardan o‘zini himoya qila olmayotgan yigit-qizlarni ko‘rib ko‘nglimda g‘alayon ko‘tariladi. Axir siz tinch va farovon mamlakatning ertangi kuni va ishonchisiz. Shunday ekan o‘zingizga bo‘lgan ishonchni oqlang, keyin nadomat qilishdan nima foyda, deya hayqirgim keladi!

Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi

Sen bukun sinfda shod yurak bilan,
Sinov navbatini kutib turasan.
A’lo mamlakatning a’lo farzandi,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!
Globusda bo‘lgan har kichik nuqta
Millionlab qondoshga vatan, albatta.
Mustasno xalqimiz yashar adabiy,
Ilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!
She’rdir, lirika, balki oddiy til,
Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!
Diplomat bo‘larsan, shu bukun, endi,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!
Fanlar ko‘p, fanlar bor o‘rganishga kuch:
Yerda yur, suvda suz, osmon uzra uch.
Hammasidek a’lo barchadan oldin
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

(G‘afur G‘ulom)

Xulosa: Demak xulosa qilib aytganda Toshkent tibbiyot akademiyasi — Respublikada yuqori malakali tibbiyot kadrlari tayyorlaydigan yetakchi oliy o‘quv yurti hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlari ma’naviyatini yuksaltirish, bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus zamonamizning porloq kelajagi uchun kalit vazifasini bajaradi.O‘z salohiyati bilan tengdoshlaridan ajralib turgan va qalbida ezgu maqsadlarni joylagan tengdoshim! Yuksak marralarni zabit etish uchun orzularni birlashtiraylik! Keling, yorqin hayot zinapoyalarini mustahkamlash uchun bir safda birga bo‘laylik! Darhaqiqat, bugungi o‘zgarishlar davri yuksak mahoratni talab etadi. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri

ekanligini inkor etishning ilojisi yo‘q. Shunday ekan, dunyo tillarini o’rganishimiz zarur. Buyuk bobomiz Farobiy o‘z davrida 70 ta tillarni mukammal bilganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Demak, biz ham dunyo tillarini o’rganishimiz, zamon bilan hamnafas bo’lishiz zarur ekan! Inshoyimni prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning ushbu so’zlari bilan yakunlamoqchiman “... Dunyoda xech qachon eskirmaydigan, yo‘qolmaydigan bebahो bir boylik borki, u ham bo‘lsa, farzandiga bergen bilim va hunardir”.

REFERENCES

1. Vasila Karimova “Psixologiya”, Toshkent, 2000.
2. Foziev E. “Umumiyl psixologiya” 1-kitob, Toshkent, 2004
3. “Psixologiya atlasi” M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. “Psixologiya”, Izohli lug’ati, Toshkent 1998
5. M.G.Davletshin. «Umumiyl psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiyl psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
7. A.V.Petrovskiy. «Umumiyl psixologiya», Toshkent, 1992.
8. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovaniya v dvux tomakh. M., 1992.
9. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o`qituvchisi psixologiyasi. T., 1997.
10. Foziev E. Psixologiya. T., 1994.